



ENG YANGI DAVRDA JANUBIY KOREYA VA O'ZBEKISTON BILAN MUNOSABATLARI

Husanboyev Azizjon Rustamjon o'g'li

Tel: +998911192743

Email: azizjonhusanboev436@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10516201>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-January 2024 yil

Ma'qullandi: 10- January 2024 yil

Nashr qilindi: 16- January 2024 yil

KEY WORDS

KXDR, korrupsiya, Pxenyan, "Arirang-1", ingliz, yapon, xitoy, olmon, EKSPLO, LCD.

ABSTRACT

Koreya jahonning eng qadimgi tamaddunlaridan biridir, uning hududida Quyi Paleolit davridayoq odamlar yashaganligi ma'lum. Shimoldan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan chegaradosh. Poytaxti – Seul shahri aglomeratsiyasi aholisi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Janubiy Koreya shuningdek ta'limi ilg'or mamlakatlardan biri bo'lib, aholisi ilmiy savod darajasi bo'yicha jahonda birinchi, matematik savod bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi. Janubiy Koreya iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar va qulay infratizimga asoslangan. Koreya Respublika 1991-yil 30-dekabrda Osiyo – Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. O'zbekiston bilan KR o'rtasida 1992-yil yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

1991 yil 17 sentyabrda esa Koreya Respublikasi (K X D R bilan birga) BMTga a'zo bo'di. 1992-yilgi saylovlardagi g'alabasi bilan Adolat liberal demokratik partiyasi yetakchisi Kim Yen Sam Janubiy Koreyada harbiy doiralarning uzoq yillik boshqaruv davriga barham berdi. Oldingi tuzumning kirdikorlari fosh etildi. Sobiq prezidentlar Chon Du Xvan va Ro De U qamoqqa olinib, ustidan jinoiyish qo'zg'atildi. Ular pora olganlikda ayblandilar. Chon Du Xvan esa davlat to'ntarishi paytidayoq Kvanju aholisi tomonidan otib tashlandi. Chon Du Xvan Tim jazosiga hukm etildi, RoDe U esa 22,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Keyinchalik Chon Du Xvaning hukmi qayta ko'rib chiqilib, umrbod qamoq jazosi bilan almashtirildi, Ro De U esa 17 yilga qamaldi Korrupsiyaga qarshi ommaviy kurash boshlandi. Siyosatchilar, amaldorlar, harbiylar, professorlar va madaniyat xodimlarining moliyaviy ahvoli to'g'risida malumotlar chop etila boshladi. Ko'pchiligi ishdan bo'shash to'g'risida ariza berishga majbur bo'lishdi yoki kuzatuv ostida bo'lib, oqibatda qamoqqa olinishdi. Moliyaviy firibgarlikka Kim Von Samning oila a'zolari ham aralashgan bo'lib chiqdi [1].

1997-yilda prezidentlik saylovlarida muxolif partiya yetakchisi, demokratik islohotlarning taniqli kurashchisi, bir necha bor harbiylar xuntasi ta'qibiga uchragan Kim Te

Jun g'alaba qozondi. 1997-yil oxirida mamlakat Osiyoning bir qator mamlakatlari qatori moliyaviy -iqtisodiy inqiroz ostida qoldi. Uni yengib o'tish Kim Te Jun ma'muriyati faoliyatining muhim yo'nalishi bo'ldi. Janubiy Koreyaning murojaatiga ko'ra, Jahon valyuta fondi va boshqa tashkilotlar unga 50 mlrd. dollardan ortiqroq kredit ajratdi, u qisqa vaqt ichida uzildi. Biroq, faqatgina xalqaro yordam bilangina inqirozni yengib o'tishning iloji bo'lmadi. Bu o'rinda koreyslarning fidokorona mehnati va ularning vatanparvarligi muhim rol o'ynadi, ular hukumatning iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlatga oltin va kumushlarni arzon narxlarda sotish haqidagi chaqiriqlariga labbay deb javob berishdi. Kim Te Jun Shimoliy Koreyaga nisbatan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan "oftob tafti" siyosatini olib bordi. Shimoliy Koreyaga gumanitar yordam ko'rsatildi, Kimgansan tog'ida (KXDR) erkin turistik zona yaratildi, ajralib qolgan oilalar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etildi, ikki mamlakat temiryo'llarini birlashtirish ishlari boshlab yuborildi va h.k. 2000-yilning 13 -15 iyunida Pxenyan shahrida Janubiy Koreya prezidenti Kim Te Jun va Shimoliy Koreya rahbari Kim Chen Ir o'rtasida tarixiy uchrashuv bo'lib o'tdi [2].

2000-yilning noyabrida Kim Te Junga tinchlik uchun Nobel mukofoti topshirildi. 2002-yilgi prezidentlik saylovlarida Koreya Respublikasi prezidenti etib No Mu Xyon, 2007-yilda Li Myon Bak, 2012 yil dekabrda esa - Pak Kin Xe saylandi, u birinchi ayol-prezident (Pak Chjon Xining qizi) hisoblanadi. Hozirgi paytda Janubiy Koreya dunyoning yirik iqtisodiy klubi (G -2 0) a'zosi. 1996-yildan mamlakat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a'zosi (IHTT). 1962-yildan 2011-yilga qadar Janubiy Koreyaning YalM 2,3 mlrd. dollardan 1,5 trln dollargacha o'sdi (dunyoda 12 - o'rinda), YaM M esa aholi boshiga - 87 dollardan 31,7 ming dollarga ko'paytirildi. Mamlakat YalMning umumiy hajmidan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, iste'mol elektronikasi va xotira chiplarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda, kema ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinda, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 7-o'rinda va h.k. Janubiy Koreya ikki marta Xalqaro ko'rgazma o'tkaziladigan joysifatida (EKSP0, 1993 va 2012 yy.) tanlangan, Olimpiyada o'yinlari (1988 va 2018 yy.), futbol bo'yicha jahon chempionati (2002 yilda Yaponiya bilan birga) o'tkazilgan, uning vakili Pan Gi Munning esa B M T Bosh kotibi etib saylanganligi ham e'tiborli holat. Aholi soni - 49 044 790 nafar. Janubiy Koreya aholisining katta qismini koreyslar tashkil etadi. Bundan tashqari mamlakatda kamida 300 ming nafar xitoyliklar istiqomat qilishadi. Janubiy Koreyaliklar o'rtacha 79,05 yil umr ko'rishadi. Deyarli hamma koreys tilida so'zlashadi, maktablarda ikkinchi til o'laroq ingliz, yapon, xitoy, olmon va boshqa tillar o'rgatiladi. 2005-yil ma'lumotlariga ko'ra Janubiy Koreya aholisining 46,5%i dinsizdir. Qolgan aholi o'zini yo xristian, yoki buddist, deb ko'rsatgan; boshqa dinlar nihoyatda kam tarqalgan [3].

Janubiy Koreyaning hozirgi imijining eng muhim qismi "koreys to'lqini" yoki xallyu deb nomlanuvchi koreys madaniyatining butun dunyoga yoyilishi hisoblanadi. Jumladan, mashhurlikka erishgan "Qish sonatasi", "Saroy javohiri" va shu kabi qator boshqa koreys seriallaridir. Harqiy Osiyo mintaqasida savdo -sotiq XXI asrning boshlarida kuchli o'sdi. Mintaqaning yetakchi davlatlari (Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy) 20 -asr oxiriga qaraganda ancha ochiqlashdi. Agar 1991 yilda bu uch mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash 56 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda 324 milliard dollardan oshdi. 2000 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davrda Janubiy Koreya va Xitoy va Yaponiya o'rtasidagi tovar aylanmasining o'sishi savdo aylanmasi o'sishidan oshdi. boshqa barcha davlatlar bilan ikki

marta. Hozirgi vaqtda mintaqadagi savdo kontsentratsiyasi Evropa Ittifoqiga qaraganda yuqori, garchi mintaqada davlatlari o'zaro munosabatlar uchun Evropadagidek qulay huquqiy asosga ega bo'lmasa [4].

Koreya Respublika 1991-yil 30-dekabrda Osiyo – Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. O'zbekiston bilan Koreya o'rtasida 1992-yil yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992, 1995, 1999-yillarda Koreya Respublikasiga va Koreya Respublikasi prezidentining 1994-yilda O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar o'zaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratdi. 1999-yilda o'zaro tovar aylanmasi hajmi salkam 526,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Koreya Respublikasi O'zbekistondan paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip, elektr asbob-uskuna, xom teri, ipak, kimyoviy o'g'it olib, O'zbekistonga transport vositalari, elektr va mexanik jihozlar, qora metall, kauchuk va rezina mahsulotlari, bo'yoqlar, turli xil jihoz va apparatlar, to'qimachilik mahsulotlari yuboradi. Janubiy Koreyaning elektronika va mashinasozlik shirkatlari jahonda yetakchi o'rinlardadir; ular qatoriga LG, Samsung va boshqalar kiradi. Butun dunyodagi LCD monitorlarning 50%i aynan Janubiy Koreyada tayyorlanadi. Samsung va LG mobil telefon ishlab chiqaruvchilari orasida dunyoda yetakchi shirkatlardandir. Janubiy Koreya aholisi elektronikadan eng ko'p foydalanuvchi xalqlar qatoriga kiradi. Internetdan foydalanuvchilarning foiz nisbatdagi soniga ko'ra birinchi o'rinda turadi. 2020-yilgacha har bir koreys xonadonida kamida bitta robot bo'lishi rejalashtirilgan. Bu reja orqali Koreya aholisining keksayishi va shu tufayli ishchi kuchi hamda askarlar soni kamayishi muammolari qisman hal qilinishi ko'zda tutilgan. Koreya Respublikasi Rossiya bilan fazoviy hamkorlik olib bormoqda, bu hamkorlik doirasida "Arirang-1" va "Arirang-2" nomli sun'iy yo'ldoshlar uchirildi. 2008-yilning 8-aprelida Koreya o'zining birinchi fazogiri - Yi So-yeonni koinotga uchirdi, u rus orbital kemasi "Soyuz TMA-12"da ishladi [5].

O'zbekistonda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 80 ga yaqin korxona bo'lib, ular transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to'qimachilik kabi sohalariga mansub. „O'zDEU avto“, „O'zDEUelektroniks“, „Kabul-O'zbek kompani LTD“, „O'zSamso'ngelektroniks“ kabi qo'shma korxonalar shu jumlagi kiradi. Ular avtomobil, xalq iste'mol mollari, radio elektron maqsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Nurafshondada va Toshkentning „Ko'kcha“ dahasida qurilgan to'qimachilik korxonalari mahsulotlari chetga eksport qilinmoqda. Farg'ona va Namangan shaharlarida ham shunday korxonalar barpo etiladi. Shuningdek, Koreya Respublikasining 19 ta kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida o'z vakolatxonasini ochgan. 1994-yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq masalalari bo'yicha O'zbekiston-Koreya va Koreya-O'zbekiston qo'shma qo'mitasi ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Koreya Respublikasining 10 ta banki bilan vakillik munosabatlari o'rnatgan. Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bir necha yillar davomida respublika vazirliklari va idoralari bilan faol aloqa qilmoqda. Shu tashkilot yo'li bilan o'zbek yigit-qizlari muntazam ravishda Koreya Respublikasida malaka oshirishmoqda. Toshkent iqtisodiyot universitetida va Moliya instituti huzuridagi litseyda kompyuter sinflari tashkil etilgan. O'zbekistondagi boshqa litsey va kollejlarni o'quv asbob-uskunalar bilan jihozlash loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta'lim markazida oliy o'quv yurtlari

muallimlari va talabalari uchun tanlov asosida malaka oshirish yo'lga qo'yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O'zbekiston jahon tillari universitetida „Koreys tili markazi“, Samarqand chet tillar institutida „Koreys tili va madaniyati markazi“ ishlaydi. Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan. Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. O'zbek madaniyat va san'at arboblari Koreya Respublikasida o'z mahoratlarini namoyish etish, O'zbekistonda koreys madaniyati haftaliklarini o'tkazish odat tusiga aylanmoqda. 1998 va 1999-yillardagi ana shunday xaftalik doirasida Toshkentda koreys kitoblari va fotosuratlarini ko'rgazmasi, koreys san'at arboblari va rassomlari ko'rgazmasi uyushtirildi. Sport turlari va koreys an'anaviy o'yinlari namoyish etildi. Kinofilmlar ko'rsatildi, nihoyat Alisher Navoiy nomidagi teatrda mashhur koreys ashula va raqs ansambllari katta tomosha ko'rsatishdi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.
4. „2013 Travel & Tourism Economic Impact Report South Korea“. World Travel & Tourism Council. 2-dekabr 2013-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 27-noyabr 2013-yil.
5. „2015년 12월 외래객입국•국민해외여행객 및 관광수입•지출 동향“. 한국 관광 통계 (koreyscha). 2016.
6. „국민여행 총량“ (ko) (23-sentyabr 2016-yil).
7. Marajabov, BNMOG (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARINING HOJ ZIYORATI TARIXIGA NAZAR. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (5-2), 862-868.
8. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). O 'ZBEKISTONDAGI ARABLARGA OID TARIXIY VA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLAR TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 691-697.